Bo'lajak pedagoglarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishning psixologik asoslari 710 <i>Eshnazarova Farida Jo'raqulovna</i>	
Ta'lim islohotlari sharoitida genderni yo'naltirilgan ta'limni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari 714 <i>Yaxyayeva Sojida Abduraximovna</i>	
Ko'rsatish olmoshlarining vazifaviy uslublarda qo'llanilishi 718 <i>Berdiyeva Malika</i>	
Nazorat turlari orqali o'quvchilarning savodxonlik kompensatsiyasini shakllantirish 721 <i>Xoldarova Irodaxon Valijonovna, Jo'rayeva Shodiya Kenjaali qizi</i>	



Zamonaviy boshlang'ich ta'limni modernizatsiya qilish sharoitida o'quvchilarda lug'atlar bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi	726
Buvajonova Mohiraxon Usmonali qizi	
Boshlang'ich ta'limni modernizatsiya qilishning asosiy yo'nalishlari: innovatsion taraqqiyot, metodik yangiliklar va istiqbollari	731
Nazarova Mohigul Akmalovna	
Maktab va pedagogika institutlari o'rtasida amaliyotga yo'naltirilgan dual ta'lim modelini takomillashtirish: muammolar va yechimlar	736
Arabova Muxiba Bazarovna	
Помощь советского государства в подготовке кадров для арабских государств	740
Хомидова Камола	
Место Узбекистана в развитии культурной сферы Советского союза во второй половине XX века ..	744
Бекназаров Собиржон	
Toshkent xalqaro kinofestivallarining Arab davlatlari va Afrika mamlakatlari kinosan'atida tutgan o'rni	748
Sharifov Shoxjaxon To'liqinjon o'g'li	
Ekonometrika fanini o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning nazariy asoslari va istiqbollari	752
Bobonorova Qundizxon Quralbay qizi	
O'quvchi faolligini oshirishda jadid maktablari tajribasi va faol ta'lim metodlarining integrativ qo'llanilishi ..	759
Bobonazarov Orif Abrayqulovich	
Влияние гендерной лингвистики на развитие психолингвистических исследований в Узбекистане ..	764
Мусаева Елена Казимовна	
Psixik rivojlanishni tashxislashda psixofiziologik usullardan foydalanish samaradorligi	767
Sh. L. Rahmonova	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish	770
Saidova Dilbar Erkinovna	
Ingliz tili o'qitishda integrativ (CLIL) texnologiyasining boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mos modellarini ishlab chiqish	773
Xakimova Xosiyat Jurayevna	
Rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda sun'iy intellektdan foydalanish usullari	776
Mirzayeva Faroxat Odiljonovna, Odiljonova Shoxsanam Abdug'appon qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida jismoniy sifatlarni rivojlantirishda innovatsion o'yin metodlarining ahamiyati	785
Ikromov Ilxom Muxamadrasimovich	
Tabiat tasvirining adabiy janrlarga ko'ra o'ziga xosliklari	790
Fozilova Mohigul Farxodovna	
Методические подходы к развитию прагматической компетентности старшеклассников на основе чтения аутентичных материалов	794
Исаматдинова Машхура Икромжон кизи	
O'zbek tilida "zahar" konseptining leksik-semantik va pragmatik xususiyatlari	799
Shokirov Sherhali Ibrohimovich, Baxramov Xabibillo Sadikovich	
Integrativ modulli o'qitish tizimi samaradorligining miqdoriy va sifat tahlili	803
Nurmanova Nazira	
Sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishda STEAM ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati	807
Toshova Shaxnoza Tojidorovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining boshlang'ich sinf o'quvchilariga harakatga doir masalalarni klaster metodida o'rgatish	811
Badalov Dilmurod Abdixalilovich	
Ona tili darslarida o'quv lug'atlaridan foydalanishning o'quvchilarning og'zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishdagi didaktik asoslari	817
Ahmedova Adiba Ulug'bek qizi	
Philosophical Aspects and Analysis of the Regularities of the Formation of Geo-Economic Thinking	822
Ubaydullayev Islomjon Abdullayevich	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini sun'iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanishga tayyorlashning pedagogik asoslari	826
Xudayqulova Fazilat Bo'riyevna	



Boshlang'ich ta'lim va tarbiya jarayonida o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishda ommaviy axborot vositalarining (Media/Mass Communication) roli.....	831
Bo'ronova Dilrabo Ne'matullayevna	
Inkluziv maktab sharoitida kichik maktab yoshidagi bolalarda ijtimoiy-perseptiv tajribani shakllantirish	835
Karimova Zulfiya Abduraxmanovna	
TEACCH konsepsiyasi – autizm va kommunikativ buzilishlari bo'lgan bolalarni davolash va o'qitish dasturi.....	839
Murodova Sarvigul Raxim qizi	
Модернизация кадровой политики дошкольных учреждений через инновационные мониторинговые механизмы	843
Ким Нигора Каримовна	
Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarining metodik kompetentligini ergonomik yondashuv asosida rivojlantirish	847
Usmonova Xafiza	
Pedagogik improvizatsiya asosida talabalar o'quv faoliyatini rivojlantirishning pedagogik strategiyalari	852
Ergasheva Muhayyoxon G'anijonovna	
Talabalar orasida ilmiy-pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazish	857
Nurmatova Madina Odiljon qizi, Qo'shoqova Farangiz Azizbek qizi	
O'quvchi-yoshlarni oilaga nisbatan ma'naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatlarga tayyorlash – ijtimoiy-pedagogik zaruriyat sifatida	861
Xaydarov Oxunjon Murodjonovich	
Talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda mustaqil ta'limning ilmiy-metodik ahamiyati	866
B. Normamatova	
Talabalarda pedagogik e'tiqodni shakllantirishning variativ modeli va uning asosiy komponentlari	869
Bahranova Hulkar Bahran qizi	
Konvensial yondashuv asosida talabalarni mustaqil ta'lim olish samaradorligining didaktik imkoniyatlarini rivojlantirish.....	872
Berdiyev Bahodir Ravshanovich	
Kontekstli yondashuvga asoslangan o'quv-ijodiy faoliyatning turlari	875
Botirova Zilola Nodirovna	
Raqamli texnologiyalar vositasida bo'lajak tarbiyachilarning pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirish.....	878
Ergasheva Sunbula Baxtiyor qizi	
Boshlang'ich sinflarida ta'lim o'quvchilarga sonlar haqida ma'lumot berish	882
Hakimova Zulfizar Umrzoq qizi	
Biologiya ta'limida elektron ta'lim (E-Learning) va aralash ta'lim (Blended Learning) texnologiyalarining samaradorligini tahlil qilish.....	886
Kozimov Akbarjon A'zamjon o'g'li	
Alisher Navoiy asarlarida ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid fikrlari tahlili.....	891
M. Ibragimova	
Integratsiyalashgan dars ta'limiy faoliyat samaradaorligini ta'minlovchi muhim omil sifatida	894
Mahmatqulova Xosiyat Bobomurod qizi	
Tarbiyalanuvchilarni xalq og'zaki ijodi namunalari asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning mazmunini ochib berish.....	897
Murodillayeva Durdona Dilmurodovna	
Sun'iy intellekt davrida bolalar adabiyoti: raqamli qahramonlar, interaktiv ertaklar va bolaning ijodiy tafakkuri rivoji	900
Normurodova Nigora Abdusattorovna, Sharipova Iroda Rashid qizi	
Qadimgi va o'rta asr mutafakkirlarining matematika fanining shakllanishi va rivojlanishidagi o'rni	903
Quvvatova Ozoda Gulbek qizi	
Shaxs xolistik rivojlanishi – psixologik-pedagogik muammo sifatida	906
Rashidova Xurriyat Sulaymonova	
Bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari.....	908
Ravshanova Kamola Toxirovna	
Matematikaga rivojiga ulkan hissa qo'shgan olimlar	911
To'rayeva Kamola Vosidjon qizi	



Umumiy o'rta ta'limda mexanika masalalarini yechish metodikasi va o'qitish jarayonining didaktik asoslari	914
Toxirova Maxfuzaxon Otaqo'ziyevna	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachi-pedagogalarining kasbiy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish	916
Xabibullayeva Sayyoraxon Maxamadali qizi	

PEDAGOGIK IMPROVIZATSIYA ASOSIDA TALABALAR O'QUV FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK STRATEGIYALARI

Ergasheva Muhayyoxon G'anijonovna

Andijon davlat pedagogika instituti
Tarix kafedrası v.b. dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim tizimining muhim jihatlaridan biri hisoblangan improvizatsion muhitni shakllantirishda pedagogik faoliyatning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Shuningdek, ta'lim jarayonida pedagogik improvizatsiya samaradorligini baholashga mo'ljallangan rubrika ilmiy jihatdan asoslab berilgan hamda uning tarix fanini o'qitish jarayonida qo'llanish imkoniyatlari tegishli adabiyotlar asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: pedagogik improvizatsiya, konstruktivizm, deyatelnost yondashuvi, baholash rubrikasi, intellekt, motivatsiya, ijodkorlik.

Abstract: This article examines the theoretical and practical aspects of pedagogical activity in creating an improvisational environment, which is considered one of the key components of the modern education system. In addition, a rubric for assessing the effectiveness of pedagogical improvisation in the educational process is scientifically substantiated, and its application in history lessons is analyzed based on relevant academic literature.

Key words: pedagogical improvisation, constructivism, activity-based approach, assessment rubric, intellect, motivation, creativity.

Аннотация: В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты педагогической деятельности по формированию импровизационной среды как одного из важных компонентов современной системы образования. Кроме того, научно обоснована рубрика оценки эффективности педагогической импровизации в образовательном процессе и проанализированы возможности ее применения на уроках истории на основе соответствующих научных источников.

Ключевые слова: педагогическая импровизация, конструктивизм, деятельностный подход, оценочная рубрика, интеллект, мотивация, креативность.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimi an'anaviy standartlashgan va rejalashtirilgan jarayondan tobora ijodiy faollikka asoslangan model sari o'zgarib bormoqda. Bu o'zgarishning markazida ta'limning asosiy vazifasi – shaxsni tayyor bilimlar majmuasi bilan emas, balki mustaqil fikrlay oladigan, yangilik yarata oladigan hamda muammolarni kreativ yo'l bilan hal qila oladigan ijodkor inson sifatida shakllantirish masalasi turibdi. Shu o'rinda zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchi faqat ma'lumot yetkazuvchi emas, balki talabalarning ilmiy-ijodiy salohiyatini rivojlantiradigan, mustaqil izlanish va pedagogik improvizatsiyani rag'batlantiradigan yetakchi sub'yekt sifatida namoyon bo'ladi.

Improvizatsiya ta'lim jarayonida yuzaga keladigan kutilmagan vaziyatlarda o'qituvchidan tezkor va samarali qarorlar qabul qilishni talab etadi. Bu qobiliyat o'qituvchiga dars jarayonini mavjud holatga mos ravishda boshqarish, fan mazmunini qiziqarli, ta'sirchan va hayotiy misollar orqali tushuntirish imkonini yaratadi. Improvizatsiya yordamida o'quvchilarning diqqatini faol saqlab turish, ularni fikrlashga, savol berishga va dars jarayonida faol ishtirok etishga undash mumkin. Shu tariqa, pedagogik improvizatsiya ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Shuningdek, pedagogik improvizatsiyani ta'lim jarayonida qo'llash talabalarning o'quv faolligi va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv o'quvchilarni passiv bilim oluvchi emas, balki faol fikrlovchi va ijodkor shaxs sifatida shakllantiradi. Improvizatsiya orqali o'qituvchi darsni jonli, qiziqarli va interaktiv tarzda tashkil etib, talabalarning mustaqil izlanish olib borish, mulohaza yuritish qobiliyatini hamda ijodiy potensialini kuchaytiradi. Natijada ta'lim jarayoni samaradorligi oshadi va shaxsning intellektual hamda ma'naviy rivoji uchun mustahkam zamin yaratiladi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Improvizatsiya ta'lim jarayonida jonli muloqot va interaktivlikni ta'minlaydi. Bu orqali o'quvchilarning qiziqishi ortib, dars jarayonida faol ishtirok muhiti shakllanadi. V.A. Kan-Kalik ta'kidlaganidek, "pedagogik improvizatsiya – bu nafaqat ijod, balki o'qituvchining ichki madaniyati, emotsional holati va axloqiy pozitsiyasining ifodasidir" [5]. Jarayon davomida talabalar bilan bevosita muloqot o'rnatish, faollikni oshirish, nazoratni samarali qo'lga olish hamda barcha talabalarni o'quv faoliyatiga jalb etish imkoniyati yuzaga keladi.

Bugungi kunda ijodiy muhitni faol targ'ib qiluvchi omil sifatida rivojlanib borayotgan improvizatsiya orqali talabalarda faol o'quv pozitsiyasini shakllantirishning ilmiy asoslari pedagogik va psixologik nazariyalarga tayanadi. Ushbu jarayon quyidagi yo'nalishlar asosida izohlanadi.

- *Birinchidan*, konstruktivizm nazariyasiga ko'ra, bilim tayyor shaklda berilmaydi, balki talabaning faol ishtirokida, tajriba va mulohaza orqali yaratiladi. Improvizatsiya ushbu faol bilim yaratish jarayonini rag'batlantiradi, chunki u talabani mustaqil fikrlashga, qaror qabul qilishga va ijodiy yechim topishga undaydi.
- *Ikkinchidan*, faol ta'lim nazariyasi talabaning faol ishtirokini ta'limning asosiy mezonini sifatida belgilaydi. Improvizatsiya orqali o'qituvchi o'quv jarayonini jonlantiradi, o'quvchi esa darsning faol ishtirokchisiga aylanadi. Bu esa motivatsiya, mas'uliyat va qiziqishni oshiradi.
- *Uchinchidan*, psixologik nuqtai nazardan, improvizatsiya emotsional muhitni shakllantirib, talabada ijobiy ruhiy holatni ta'minlaydi. Bu holat bilimni chuqur o'zlashtirishga hamda fikrlash faolligining oshishiga xizmat qiladi.

Deyatelnost yondashuvi (faoliyatga asoslangan yondashuv)ga ko'ra, bilim va ko'nikmalar faol harakat orqali shakllanadi. Improvizatsiya – bu aynan faol harakatning, ya'ni amaldagi fikrlash va ijodiy tajribaning ko'rinishi bo'lib, talabada faol o'quv pozitsiyasini rivojlantiradi. Talaba bilimni tayyor holda qabul qilmaydi, balki o'qish, izlanish, fikrlash, tajriba o'tkazish, bahs va mulohaza orqali uni o'zi yaratadi. Demak, ta'limda asosiy e'tibor o'qituvchi faoliyatiga emas, balki talabaning faol harakati va fikrlash jarayoniga qaratiladi.

Deyatelnost yondashuvining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat: faollik tamoyili – talabaning ta'lim jarayonida faol ishtirok etishi; amaliyotga yo'naltirish – bilimning hayotda qo'llanilishi uchun amaliy misol va tajribalar bilan bog'lanishi; mustaqillik va ijodkorlik – talabaning mustaqil qaror qabul qilishi va yangi g'oyalar taklif etishi; motivatsiyani kuchaytirish – faoliyat jarayonida talabada qiziqish va ishtiyoqning yuzaga kelishi.

Ushbu yondashuv L.S. Vigotskiy, A.N. Leontev hamda S.L. Rubinshteyn kabi rus psixolog va pedagog olimlar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ular ta'lim jarayonida shaxs faqat ma'lumot qabul qiluvchi emas, balki bilim yaratuvchi sub'yekt sifatida ishtirok etishi zarurligini ta'kidlaganlar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda pedagogik improvizatsiya asosida talabalarning o'quv faoliyatini rivojlantirish jarayonini o'rganish uchun aralash tadqiqot yondashuvidan foydalanildi. Tadqiqot ma'lumotlari bir necha manbadan olindi: auditoriya mashg'ulotlari jarayonida olib borilgan tizimli pedagogik kuzatishlar, talabalar va o'qituvchilar bilan o'tkazilgan yarim tuzilgan so'rovnoma hamda chuqurlashtirilgan suhbatlar orqali empirik ma'lumotlar jamlandi. Shuningdek, dars jarayonlarining video va audio yozuvlari tahlil uchun qo'shimcha manba sifatida qo'llanildi. Talabalarning o'quv faolligi, muloqotga kirishish darajasi, mustaqil fikrlashi va refleksiv ko'nikmalari maxsus ishlab chiqilgan kuzatuv mezonlari asosida qayd etildi.

Olingan sifati ma'lumotlari tematik tahlil usuli yordamida qayta ishlanib, pedagogik improvizatsiyaning o'quv faoliyatiga ta'sir etuvchi asosiy omillari aniqlashtirildi. Miqdoriy ma'lumotlar esa tavsifiy statistika vositalari orqali umumlashtirildi. Tahlil jarayonida kuzatuv, so'rovnoma va suhbat natijalari o'zaro taqqoslanib, xulosalarning ishonchligini oshirish maqsadida triangulyatsiya usuli qo'llanildi. Ushbu metodologik yondashuv tadqiqot natijalarining ilmiy asoslangan va amaliy jihatdan ahamiyatli bo'lishini ta'minladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Olimlarning ilmiy tadqiqot faoliyati natijalari asosida shuni ko'rish mumkinki, Vigotskiyning ta'lim psixologiyasidagi asosiy g'oyasi – ijtimoiy muhit va nutq orqali rivojlanish nazariyasidir. Uning fikricha, inson tafakkuri ijtimoiy faoliyat jarayonida, boshqalar bilan muloqotda shakllanadi. U "yaqin rivojlanish zonasi" tushunchasini ilgari surgan, ya'ni talaba muallim yordamida bajara oladigan faoliyat orqali yangi bilimni egallaydi. Ta'limning vazifasi – o'quvchini faol harakat va muloqot orqali rivojlantirish, bilimni ijtimoiy faoliyatda o'zlashtirishdan iborat [6]. Shu bois, Vigotskiy ta'limni passiv emas, balki faol, ijtimoiy va ijodiy jarayon sifatida ko'radi.

Ta'limning improvizatsion faoliyat nazariyasining asoschisi hisoblangan Leontevning fikricha, insonning ongi va bilimlari faqat faoliyat orqali shakllanadi. U "faoliyat – motivga ega harakatlar tizimi" degan ta'rifni

bergan. Ta'limda eng muhim narsa – talabani faoliyat subyekti sifatida shakllantirishdir. Leontev ta'lim jarayonida maqsad, motiv va amaliy harakat birligiga alohida e'tibor qaratgan^[3]. Shuning uchun u ta'limni faqat bilim berish emas, balki ishlash, izlanish va tajriba orqali ongni rivojlantirish jarayoni deb bilgan.

Ushbu tadqiqotlar qatorida Rubinshteyn ham inson psixologiyasi va faoliyatini o'rganishda "faoliyat orqali ong rivojlanadi" degan asosiy qoidani ilgari surgan. Uningcha, inson tafakkuri tashqi faoliyat bilan chambarchas bog'liq – inson harakat qilar ekan, o'ylaydi, anglaydi va o'rganadi. U ta'lim jarayonida faoliyat, hissiy tajriba va tafakkur birligini muhim deb hisoblagan. Demak, Rubinshteyn fikricha, faqat faol ishtirok va tajriba orqali shaxsning bilish qobiliyati rivojlanadi.

METODIK TAHLIL

Tarix fanini o'qitishda improvizatsiya juda muhim ahamiyatga ega, chunki u ta'lim jarayonini jonlantiradi va o'quvchilarga voqealarni faqat yodlab olish emas, balki his qilish va anglash imkonini beradi. Quyida uning asosiy sabablari keltiriladi:

1. **Darsni ta'sirchan va jonli qilish** – tarixiy voqealarni hissiy ta'sir bilan ifoda etish, jonli misollar va voqealarni sahna ko'rinishida yoki mulohaza asosida bayon qilish talabalarning qiziqishini kuchaytiradi.
2. **Kutilmagan vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilish** – talabalarning savollari, fikrlari yoki bahs jarayonlarida o'qituvchi improvizatsiya orqali dars yo'nalishini faol boshqarishi mumkin.
3. **Mustaqil fikrlash va tahlil qobiliyatini rivojlantirish** – improvizatsiya o'quvchilarni fikrlashga, voqealarga nisbatan shaxsiy munosabat bildirishga va tarixiy xulosalar chiqarishga undaydi.
4. **Emotsional muhit yaratish** – tarix faqat faktlar majmui emas, balki inson his-tuyg'ulari bilan bog'liq fan bo'lib, improvizatsiya orqali o'sha davr ruhi va voqealar drammatizmi namoyon etiladi.
5. **Talabalar bilan muloqotni faollashtirish** – improvizatsiyali darslarda talabalar faqat tinglovchi emas, balki suhbatdosh, bahsdosh va faol ishtirokchiga aylanadi.

Ushbu izohlarning asosiy maqsadi improvizatsiya tushunchasini o'qituvchilar uchun kasbiy mahorat sifatida tushunish va muhokama qilishdir. Har kuni o'qituvchilar turli pedagogik vaziyatlarda yuzaga keladigan talab va ehtiyojlarga muvofiq harakat qilishlari zarur. Alla Vinnichuk tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida ta'limdagi improvizatsiya tushunchasi quyidagi to'rt jihat bo'yicha aniqlangan:

1. **Muloqot va dialog** – improvisatsiyadagi muloqot ichki jarayondan tashqi yo'naltirilgan natijaga qadar uzviy davom etadi.
2. **Tuzilish va dizayn** – professional improvizator rejalashtirish va tizimli fikrlash ko'nikmalariga ega bo'lishi zarur.
3. **Repertuar** – mazmun va pedagogik bilimlarga asoslangan repertuar improvizatsiyaning muhim sharti hisoblanadi.
4. **Kontekst** – kasbiy improvizatsiya kontekstga bog'liq bo'lib, ta'lim sohasiga xos xususiyatlarni mujassam etadi^[1].

Tarix fanini o'qitishda improvizatsiya – darsni jonli, ta'sirchan va shaxsga yo'naltirilgan tarzda tashkil etishning muhim pedagogik vositasidir. Tarix yo'nalishi talabalarini improvizator o'qituvchi sifatida tayyorlash zarur, chunki bu fan nafaqat fakt va sanalarni yodlashni, balki voqealarning ijtimoiy va ma'naviy ahamiyatini chuqur anglashni talab qiladi. Improvizatsion yondashuv o'qituvchiga darsni vaziyatga mos ravishda olib borish, o'quvchilarning fikrini faollashtirish va ularni bahs-munozaraga jalb etish imkonini yaratadi.

Nikolas Sorensen tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda ta'lim sohasidagi mutaxassislar, xususan, o'rta maktab o'qituvchilari improvizatsiyani professional kompetensiyaning muhim qismi sifatida baholashi aniqlangan^[7]. "Improvisation and Teacher Expertise" konsepsiyasi Angliya ta'lim tizimida XXI asr uchun ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi^[8].

Didaktik o'yinlar orqali improvizatsiya kompetensiyasini rivojlantirish 2008-yilda Ukraina davlat ta'lim standartlariga kiritilgan. Jitomir davlat universitetida o'tkazilgan tadqiqotlarda kelajakdagi o'qituvchilarda pedagogik improvizatsiyani shakllantirish usullari o'rganilgan. Ushbu jarayon tezkor qaror qabul qilish, pedagogik muloqotni samarali tashkil etish va emotsional-ifodali nutqdan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi^[2,99].

Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, tarix fani jonli mulohaza, hissiy ta'sir va voqealarni teran idrok etishni talab qiluvchi fanlardan biridir. Shu bois, improvizatsiya va ijodiy yondashuv tarix fanini o'qitishda muhim rol o'ynaydi.


Pedagogik improvizatsiya samaradorligini baholash rubrikasi ^[9]

№	Mezon nomi	5 ball Yuqori daraja	3 ball O'rtacha daraja	1 ball Past daraja
1.	Moslashuvchanlik	Tez va aniq qaror qabul qiladi, darsni to'liq boshqaradi.	Bir oz ikkilanish bor, ammo darsni davom ettira oladi.	Vaziyatga javob berishda qiynaladi, dars sifati pasayadi.
2.	Ijodkorlik	Yangi, noodatiy, qiziqarli usullarni qo'llaydi, o'quvchilarni jalb qiladi.	Improvizatsiya mavjud, ammo oddiy va umumiy metodlardan foydalangan.	Yangilik yo'q, faqat an'anaviy yondashuv.
3.	Muloqot madaniyati	O'quvchilar bilan ochiq, iliq, interaktiv aloqada.	Muloqot mavjud, ammo yetarli darajada samimiy emas.	Muloqot sust, o'quvchilar ishtiroki past.
4.	O'quvchilar faolligi	O'quvchilar faol ishtirok etadi, savol beradi, fikr bildiradi.	Ayrim o'quvchilar faollik ko'rsatmoqda.	O'quvchilar deyarli faol emas.
5.	Pedagogik maqsadga sodiqlik	Improvizatsiya dars maqsadiga xizmat qilmoqda, natijaga olib keladi.	Improvizatsiya bor, ammo asosiy maqsaddan biroz chalg'igan.	Dars maqsadi unutilgan yoki buzilgan.
6.	Stressga chidamlilik va emotsional nazorat	Vaziyatni xotirjamlik bilan boshqaradi, ijobiy muhitni saqlaydi.	Biroz asabiylik seziladi, lekin boshqarish mumkin.	Emotsional nazorat sust, salbiy muhit vujudga keladi.
7.	Refleksiya (o'z-o'zini tahlil qilish)	Darsdan keyin o'z ishini chuqur tahlil qiladi, xulosalar chiqaradi.	Tahlil yuzaki, faqat ayrim jihatlar esga olinadi.	Tahlil qilmaydi yoki faqat holatini oqlaydi.

Dars kuzatuvda qo'llash – metodistlar va trenerlar ishtirokida pedagogik faoliyatni baholash jarayonida improvizatsiya ko'nikmalari o'qituvchining moslashuvchanligi va ijodiy yondashuvini aniqlashda muhim mezonlardan biri hisoblanadi. Dars jarayonini kuzatish va baholash nafaqat o'qituvchining hozirgi darajasini aniqlashga, balki kelgusidagi kasbiy rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishga ham xizmat qiladi ^[4].

Har bir mezon bo'yicha aniq misollar keltirish baholashning ob'ektiv va ishonchli bo'lishini ta'minlaydi. Buning uchun har bir mezon asosida real va aniq vaziyatlarga tayangan holda misollar berilishi zarur. Bu holat subyektiv yondashuvlarni kamaytiradi va kuzatuv natijalarini tahlil qilish jarayonini yengillashtiradi.

Video yoki audio yozuvlar asosida tahlil qilish dars jarayonini (video yoki audio shaklda) qayta ko'rib chiqish orqali improvizatsiyaning sifatli va chuqur tahlilini amalga oshirish imkonini beradi. Ushbu yondashuv obyektivlikni ta'minlaydi, takroriy tahlil qilish imkoniyatini yaratadi hamda o'qituvchining o'z faoliyatini mustaqil ravishda baholashiga sharoit yaratadi. Pedagogik improvizatsiya ta'lim jarayonida yuzaga keladigan kutilmagan holatlarga pedagog tomonidan tezkor va maqsadga yo'naltirilgan ijodiy yondashuv asosida ta'sir etish jarayonidir ^[10,272].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ta'lim dunyosida doimiy ravishda o'rganishga oid yangi yondashuvlar paydo bo'lib boradi va eng samarali usullardan biri "o'qituvchi-improvizator" tushunchasi hisoblanadi. Ushbu yondashuv o'qituvchining moslashuvchan, ijodiy bo'lishi hamda sinfdagi o'zgaruvchan sharoitlarga tez va samarali moslasha olishini nazarda tutadi. Improvizator o'qituvchining asosiy xususiyatlaridan biri o'quvchilarning ehtiyojlari va o'quv jarayonidagi o'zgarishlarga tezkor javob bera olish qobiliyatidir. Bunday o'qituvchi qat'iy o'quv dasturiga doimiy ravishda bog'lanib qolmaydi, balki vaziyatdan kelib chiqib o'z yondashuvini moslashtirishga tayyor bo'ladi.

Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, improvizatsiya nafaqat ijodiy jarayon sifatida, balki pedagogik tajribaning yuksak bosqichi sifatida ham qaraladi. Uning mohiyati shundan iboratki, o'qituvchi ta'lim maqsadlaridan chekinmagan holda talabalarning ehtiyojlari va qiziqishlarini inobatga olib, dars jarayonini samarali tarzda qayta yo'naltira oladi. Bu esa zamonaviy o'quvchi uchun dars mazmunining mohiyatini chuqur anglab yetishida muhim mezonlardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- Alla Vinnichuk. Pedagogical improvisation in forming professional competence of the future teachers-philologists // Society. Integration. Education: Proceedings of the International Scientific Conference. Volume I, 27-05-2022. P. 284–294.
- Ablokulov Sherar Davronovich. Important features of pedagogical improvisation // Journal of Pedagogical Inventions and Practices. Volume 4, 25-01-2022. P. 99.

3. A. N. Leontyev. Ong haqida materiallar // Faoliyat nazariyasi bo'yicha tadqiqotlar uchun elektron jurnal, Германия, 2010, № 2. B. 67–98. https://psyjournals.ru/en/journals/tatigkeitstheorie/archive/2010_n2/36678
4. Brookhart, S. M. How to create and use rubrics for formative assessment and grading. ASCD, 2013.
5. Kan-Kalik V. A., Nikandrov N. D. Pedagogical creativity. Moskva: Pedagogika, 1990. 144 p.
6. L. S. Vygotskiy. Pedagogical works. Springer, Singapur, 2021. Elektron kitob.
7. Nikolas Sorensen. The improvising teacher: reconceptualising pedagogy, expertise and professionalism.
8. Nikolas Sorensen. Improvisation and teacher expertise: implications for the professional development of outstanding teachers. Ilmiy maqola.
9. Rubinshteyn S. L. Izbrannye filosofsko-psikhologicheskie trudy. Osnovy ontologii, logiki i psikhologii. Moskva: Nauka, 1997. 463 s.
10. Schön, D. A. The reflective practitioner: how professionals think in action. Basic Books, 1983.
11. Ergasheva Muhayyoxon G'anijonovna. Pedagogik improvizatsiya tushunchasi, mohiyati va ta'limdagi o'rni // Education in a Changing World: Multidisciplinary Perspectives for Global Progress: International Scientific and Practical Conference, 2025. P. 272.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.